

BUXORO VOHASINING AYRIM JOY NOMLARINI KELIB CHIQUISH TARIXIDAN

Shozamonova Laylo Bahodirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi II bosqich 202- guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi Zarafshon vodiysining quyi qismida qad ko'targan O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri hisoblangan 2300 yillik tarixga ega Buxoroning paydo bo'lishi, rivojlanishi, tarixi va Buxoro vohasining ayrim joy nomlarini kelib chiqishiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Arxeologik tadqiqotlar, Zarafshon vodiysi, madaniy qatlam, toponimika, etimologiya, voha, vodi, mintaq, qishloq, ibodatxona.

Buxoro asrlar mobaynida Sharqning ilm-ma'rifat va madaniyat markazi sifatida dunyoga dong'i ketgan qadimiy shahar hisoblanadi. Buxoro to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yunon va rim mualliflarining asarlarida tilga olinadi. Buxoro vohasida bir qancha olimlar va arxeologlar tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Ularning arxeologik qazishmalari shuni ko'rsatadiki, Buxoro botqoqlik ustida hosil bo'lgan shahardir, hattoki arxeolog S.N. Yurenev yer osti suvlari buloqdek qaynab chiqishi oqibatida shaharning qadimgi sathigacha yeta olmagan va keyinchalik qazishlar natijasida ko'zlangan maqsadga erishilganligini aytib o'tilgan. Olimlarning arxeologik o'rganishlari natijasida asarlar davomida tuproq ustida 14 metrli bazi joylarda esa 20 metrli qalinlikda madaniy qatlamlar vujudga kelganligi aniqlangan.⁶⁶

Buxoro vohasini o'rganar ekanmiz X asrda yashagan Vobkentlik tarixchi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu asarda Buxoro quyidagicha tasvirlanadi: "Hozirda Buxoro botqoqlik bo'lib, uning bazi yerlarini to'qayzor, daraxtzor va ko'kalamzorlar tashkil etgan, ayrim joylari esa shunday bo'lganki, biron hayvon ham oyoq qo'yishga joy topa olmagan. Buning sababi shuki Samarqand tomonidagi viloyatlarda tog'larda qor erib suvi o'sha joyga yig'ilib yotar edi" deyiladi.⁶⁷

Buxoro so'zining kelib chiqishi haqida turli xil taxminlar mavjud. Eng ko'p tarqalgan ikki nazariyaning birinchisiga ko'ra, Buxoro so'zi sanskrit tilidagi "vihara"- ibodatxona so'zidan olingan bo'lib, bunday deyilishiga sabab shahar qadimdan Markaziy Osiyodagi buddaviylik markazlaridan biri

⁶⁶ A.Muhammadjonov. Qadimgi Buxoro (arxeologik va tarix) Toshkent-1991. B-5,27

⁶⁷ X.To'rayev. Buxoro toponomikasi. Buxoro-2021. B-117,125.

bo'lganligidir. Bundan tashqari XI asrda yashab o'tgan filshunos Mahmud Koshg'ariy ham Buxoro nomi budparastlar ibodatxonasi nomidan kelib chiqqanini ta'kidlagan. Endi ikkichi taxminga ko'ra Buxoro nomi so'g'd tilidagi "buharak"- baxtli maskan so'zidan kelib chiqqan. Buxoro nomi ham ilk bor IV-V asrlardagi so'g'd tangalarida ishlatilgan. Xalq orasida esa Buxoro so'zi "buxtangri", 'oro"-jamoli so'zlaridan tashkil topgan degan yana bir versiya mavjud. Bir hadisda keltirilishicha Buxoro nomi Foxira bo'lib kelgan, chunki qiyomat kuni Buxoro shahri o'zida shahidlarning ko'pligi bilan fahr qiladi deyilgan. Xalq orasida Buxoro bog'lari ko'pligidan Bog'oro degan ma'noni bildiradi degan rivoyat ham bor. Tarixchi Xofiz Tanish yozishicha, Buxoro so'zi "buxor" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, otashparastlar tilida "ilm makoni" demakdir. Buxoro so'zining kelib chiqishi haqida bir nechta faktlar bo'lsa ham hali bir to'xtamga kelinmagan. Shunday qilib Buxoro etimologiyasi aniq emas.

Buxoro viloyati tarkibida 11 ta qishloq tumani (Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qoravulbozor, Qorako'l, G'ijduvon), 11 ta shahar (Buxoro, Vobkent, Gazli, Galaosiyoy, Kogon, Olot, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, Qoravulbozor, G'ijduvon) va 3 ta shaharcha (Jondor, Zafarobod, Yangibozor) mavjud. Buxoro vohasining asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblanadi. Qachonlardir shu daryo bo'ylarida uzoq ajdodlarimiz istiqomat qilishgan, boshpana uchun chayla yasaganlar, ko'hna dunyoning to'ng'ich shaharlaridan bo'lmish Poykendni bunyod etganlar.⁶⁸

Poykend So'g'diyonaning dastlabki shahri hisoblanadi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan bu shahar dovrug'i butun dunyoga ketgan. Mualliflarning hamkorligida yozilgan "Poykend xaraobalari" kitobida Poykend shahriga eramizdan avvalgi IV-III asrlarda poydevor qo'yganligini ko'rishimiz mumkin. Vaqtida sersuv bo'lgan bu shaharda savdo karvonlari to'xtab hordiq chiqarishgan. Poykend aholisi o'ziga to'q bo'lgan. Asosiy daromad manbai savdo- sotiq bo'lgan. Undan tashqari Buyuk ipak yolida joylashganligi ham uning boy shahar bo'lishiga sabab bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shahar aholisining o'ziga to'qligidan foydalangan ko'chmanchi to'dalar bu shaharga tez- tez hujum qilib turishar edi. Buning oldini olish maqsadida aholi birgalashib balandligi 15 metrdan kam bo'lmagan devor bilan shahar atrofini o'rab olishadi. V-VI asrlar Poykend shahri uchun O'rta Osiyoning eng katta boy shahriga undan tashqari madaniyati gullab yashnagan va o'z

⁶⁸ S.Qorayev. O'zbekiston viloyatlari toponomikasi. Toshkent-2005. B-52-53.

cho'qqisiga chiqqan davri bo'ladi.⁶⁹ Poykendning asosiy aholisi savdogar bo'lgan. Undan tashqari qo'li gul hunarandlari ham kopchilikni tashkil etgan. Hunarmandlar sopoldan turli tuman idishlar, quvurlar, bir quloqli, ikki quloqli va to'rt quloqli bir biridan ajoyib ko'zalar yasashgan. Shishasozlik ham taraqqiy etgan sohalardan biri bo'lgan. Hattoki hunarmandlar shishasozlikni san'at darajasiga olib chiqishgan. Poykend aholisi tinib tinchimas bo'lgan. Turli sohalar bilan shug'ullangan va mshg'ul bo'lgan poykendliklar o'sha paytlarda pishiq g'isht tayyorlash texnologiyasini ham yaratganlar. Ular pishirgan g'ishtlar hozirgi kundagi g'ishtlardan ko'p farq qilmagan. Ularnin g'ishti yupqaroq va eni kengroq bo'lgan. Arxeologlar shaharda qazishmalar olib borish chog'ida u yerdan pishiq g'ishtdan qurilgan vannaxona qoldiqlarini topishgan. Hozirgi kungacha pishiq g'isht bo'laklari, sopol ko'zalar siniqlari hattoki sopol quvurlarning ma'lum qismlari ham saqlanib kelgan.

Dunyoga dovrug'i ketgan bu shahar ko'p yashamadi. Sababi shu ediki Qashqadaryoning quyi oqimi Poykendga yetmasdan to'xtab qoldi. Ayni paytda Zarafshon daryosining suvi ham keskin kamayib ketgan edi. Sug'oriladigan yerlarning haddan ziyod ko'pligi suvning tanqisligiga olib keldi. Bir paytlar aholi gavjum yashagan Poykend qurg'oqchilikka duchor bo'ldi. Endilikda aholi bu shaharni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Poykend taqdiri odamlar qismatiga o'xshaydi: tug'ildi, yashadi va o'ldi.

Mana endi 800 yildan oshibdiki, xaritalarda Poykend degan shahar yo'q. Buxoro viloyati, Qorako'l tumanida bu shaharning xarobalarini uchratishimiz mumkin.⁷⁰

Buxoro viloyatining janubi-g'arbidagi Qorako'l vohasi haqida gap borar ekan bu qadimgi shahar nomining kelib chiqishi haqida bir qancha qarashlar mavjud. Umuman olganda Qorako'l tumani hududi ibtidoiy madaniyat izlarini o'zida aks ettirgan mamlakatimizning qadimiy maskanlaridan biri hisoblanadi. Shu bois o'tgan asrning 50-yillaridan bu hudud arxeolog olimlarning diqqatini tortib, ularning keng miqyosdagi arxeologik tadqiqot ob'ektiga aylandi. Jumladan, Ya. G'ulomov, A.Muhammadjonov, A.Asqarov J.Mirzaahmedov kabi milliy arxeologiyamizning jonkuyar namoyandalari ushbu hududda keng ko'lamlari arxeologik izlanishlar olib bordilar. Ularning aniqlashicha, qadimda hozirgi Qorako'l tumani hududida ulkan ko'l bo'lib, unga Qashqadaryo tomondan va Zarafshon daryosi orqali doimiy ravishda suv oqib turgan.

⁶⁹ Sh.Nurmatov. Qorako'l taronasi. Toshkent-1996. B-2,24,25.

⁷⁰ Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent-1966. B-56.

Keyinchalik “Qorako‘l” geografik atamasining paydo bo‘lishi ham tumaning qadimiy geografik o‘rni bilan bog‘liq. Bu ko‘l o‘rta asr yozma manbalarida “Buxayrayi Somjan”, ya’ni Somjan dengizi, “Bahr ul-Buxoro” – Buxoro dengizi va boshqa bir qancha atamalar bilan nomlangan. Xalq orasida esa bu nomning kelib chiqishi haqida boshqacha bir qarash bor.

Bilamizki Buyuk Ipak yo‘lining bir tarmog‘ Poykend vohasidan o‘tgan. Savdo karvonida turk savdogarlari ham bo‘lgan va ular yo‘l yo‘lakay ketishayotganida uzoqdan bir ko‘lga ko‘zi tushishadi. Bu ko‘l uzoqdan qorayib ko‘ringan. Shu sababli bu ko‘lni turk savdogarlari qorako‘l deyishgan. Hali hanuzgacha shunday nom bilan atalib kelinmoqda. Qorako‘lning qadimgi tarixini uch davrga ajratish mumkin. Birinchisi Darvozaqir va uning atrofida ibtidoiy ovchi va baliqchi qabilar yashagan davr; ikkinchisi, Zamonboboda ibtidoiy dehqon va chorvadorlar istiqomat qilgan davr; uchinchisi shimoldan yarim ko‘chmanchi yangi aholi kelgan davr. Yangi aholi Zamon boboda o‘troq bo‘lib va yerli xalqqa aralashib ketgan. Asosan qorako‘lda dehqonlar chorvadorlar hamda qo‘li gul hunarmandlar yashagan. Asrlar davomida qorako‘llik chorvador va dehqonlar yangi kasb hunarmandchilikni o‘rganadilar. Bu davrda qorako‘l aholisi ko‘chmanchi talonchilardan ko‘p aziyat chekishar edi. Buning oldini olish maqsadida o‘z mol mulklarini ko‘chmanchi talonchilardan himoya qilishning bir qancha yo‘llarini o‘ylay boshladilar. Bu esa ularning yanda inoq, bir biriga yaqin, hamkor bo‘lib yashashiga olib keldi. Qorako‘l vohasida odamlar gavjum yashashgan.

Hozirgi kunda Qorako‘l tumanida bir qancha mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Shundan ba’zilari nomlarining kelib chiqishiga to‘xtalib o‘taman. Darg‘ali so‘zining kelib chiqish tarixiga nazar tashlar ekanmiz bu nom Chig‘atoy ulusi davridagi "dorug‘a" so‘zidan kelib chiqqan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.⁷¹ Bu yerda istiqomat qiluvchi aholi darg‘alar deyilgan. O‘sha paytda o‘ziga to‘q, boy aholini darg‘alar deb atashgan. Shu tariqa o‘zlari yashaydigan joy ham Darg‘ali deb nomlanib qolgan. Undan tashqari Darg‘abog‘i deb nomlanuvchi qishloq ham bor. Bu qishloqning bunday nomlanishiga sabab darg‘alarning ya’ni o‘ziga to‘q aholi qatlamining bog‘lari bo‘lgan. Ular juda ko‘p daraxtlar ekib, bog‘lar tashkil qilishgan. Shu tariqa bu qishloq Darg‘abog‘i nomi bilan atalib kelinmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki bugungi kunda Buxoro vohasida juda ko‘p nomdagi joy nomlari mavjud bo‘lib, biz yashab turgan atrof mintaqada joylashgan qishloqlarni toponomikasi qisqacha tahlil qilib berdik.

⁷¹ <https://legacy.uz>.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. A.Muhammadjonov. Qadimgi Buxoro (arxeologik va tarix) Toshkent-1991. B-5,27.
2. X.To`rayev. Buxoro toponomikasi. Buxoro-2021. B-117-125.
3. S.Qorayev. O`zbekiston viloyatlari toponomikasi. Toshkent-2005. B-52-53.
4. Sh.Nurmatov. Qorako`l taronasi. Toshkent-1996. B-2,24,25.
5. Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent-1966. B-56.
6. <https://legacy.uz>.